

GENOTSID JINOYATINING XALQARO-HUQUQIY MOHIYATI VA JAVOBGARLIK MASALALARI

Aytimova Barshinay Mu’barrek qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti talabasi

Baltabaeva Ulbiyke Ilich qizi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
yuridika fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada genotsid jinoyatining xalqaro huquq tizimidagi o'rni, uning tarkibiy elementlari, tarixiy shakllanishi hamda davlatlar va shaxslarning xalqaro-huquqiy javobgarligi masalalari ilmiy tahlil qilingan. Xalqaro jinoyat tribunallari va Xalqaro jinoyat sudi amaliyoti, shuningdek mavjud huquqiy mexanizmlarning samaradorligi va ulardagi bo'shliqlar ko'rib chiqilgan. Maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-huquqiy, tarixiy va tizimli tahlil usullaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: *genotsid, xalqaro jinoyat huquqi, konvensiya, xalqaro jinoyat sudi, davlatning javobgarligi, xalqaro majburiy normalar.*

INTERNATIONAL-LEGAL ESSENCE OF THE CRIME OF GENOCIDE AND ISSUES OF LIABILITY

Aytimova Barshinay Mubarrek qizi

A student of the Faculty of Law at Berdakh Karakalpak State University

Baltabaeva Ulbiyke Ilyichovna

A student of the Faculty of Law at Berdakh Karakalpak State University

Abstract: This article provides a scientific analysis of the role of the crime of genocide in the system of international law, its structural elements, historical formation, and issues of international legal liability of states and individuals. The study examines the practice of international criminal tribunals and the International Criminal Court, as well as the effectiveness of existing legal mechanisms and their gaps. The article utilizes comparative-legal, historical, and systematic analysis methods as the research methodology.

Keywords: *genocide, international criminal law, Convention, international criminal court, responsibility of the state, international binding norms.*

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ СУЩНОСТЬ И ВОПРОСЫ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ПРЕСТУПЛЕНИЯ ГЕНОЦИД

Айтымова Баршынай Муббарек кизи

Студент юридического факультета Каракалпакского государственного
университета имени Бердаха

Балтабаева Улбийке Илич кызы

Студент юридического факультета Каракалпакского государственного
университета имени Бердаха

Аннотация: В данной статье представлен научный анализ места преступления геноцида в системе международного права, его структурных элементов, исторического формирования, а также вопросов международно-правовой ответственности государств и лиц. Рассмотрена практика международных уголовных трибуналов и Международного уголовного суда, а также эффективность существующих правовых механизмов и пробелы в них. В статье в качестве методологии исследования использованы сравнительно-правовой, исторический и системный методы анализа.

Ключевые слова: *геноцид, международное уголовное право, Конвенция, Международный уголовный суд, ответственность государства, международные обязательные нормы.*

Xalqaro huquqning rivojlanish tarixida genotsid jinoyatining huquqiy jihatdan belgilanishi va unga nisbatan samarali javobgarlik mexanizmlarini ishlab chiqish eng murakkab va tortishuvli masalalardan biri bo'lib qolmoqda. XX asrda yuz bergan ommaviy qirg'inlar Birinchi Jahon urushi davrida armanlar genotsidi, Ikkinchi Jahon urushida yahudiy xalqiga nisbatan amalga oshirilgan Xolokost, 1975–1979 yillarda Kambodja, 1994 yilda Ruanda va 1995 yilda Srebrenitsa fojialaridan keyin xalqaro hamjamiyat ushbu jinoyatni huquqiy jihatdan tartibga solish zaruratini chuqur anglab yetdi. Biroq nazariya va amaliyot o'rtasidagi farq bugungi kunda ham keskin ko'rinmoqda. Shu boisdan ushbu tadqiqot ikki asosiy maqsadni ko'zlaydi: birinchidan, genotsid jinoyatining xalqaro huquqdagi tarkibiy elementlarini tizimli tahlil qilish; ikkinchidan, mavjud javobgarlik mexanizmlarining samaradorligini baholash va ulardagi tizimli kamchiliklarni aniqlash.

"Genotsid" terminining ilmiy muomalaga kiritilishi bevosita polsha-yahudiy huquqshunosi Rafaэль Lemkin nomi bilan bog'liqdir. Lemkin 1944 yilda nashr etilgan "O'q ostidagi Evropa" (*Axis Rule in Occupied Europe*) asarida ushbu tushunchani birinchi marta qo'llagan. Atama yunoncha *genos* -zot, urug', xalq va lotincha *cide* -o'ldirmoq so'zlarining qo'shilmasidan hosil qilingan.¹ Lemkinning ta'kidlashicha, genotsid bu shaxslarni o'ldirish bilan bir xil tushuncha emas. U guruhning o'zini uning madaniy asoslarini, tilini, dinini, ijtimoiy tuzilmasini yo'q qilishga qaratilgan murakkab harakatlar majmuasini anglatadi. Bu ta'rif keyinchalik 1948 yilgi Konvensiyaning asosini tashkil etdi. "Genotsid jinoyatining oldini olish va uni jazolash to'g'risida"gi Konvensiya 1948 yil 9 dekabrda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan va 1951 yil 12 yanvarda kuchga kirgan. Hozirda 153 davlat mazkur konvensiyaga ishtirokchi hisoblanadi. Konvensiyaning II moddasi genotsidning normativ ta'rifini belgilaydi: Milliy, etnik, irqiy yoki diniy guruhni to'liq yoki qisman yo'q qilish niyati bilan amalga oshiriladigan quyidagi harakatlardan birortasi genotsid hisoblanadi: Guruh a'zolarini o'ldirish, guruh a'zolariga jiddiy jismoniy yoki ruhiy zarar yetkazish, guruhning to'liq yoki qisman jismoniy yo'q bo'lishiga olib kelishi mumkin bo'lgan turmush sharoitlarini ataylab yaratish, guruh ichidagi tug'ilishni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, guruhning bolalarini majburan boshqa guruhga o'tkazish. Konvensiyaning III moddasi esa jazolash lozim bo'lgan harakatlar ro'yxatini kengaytiradi: genotsidning o'zi, genotsidni rejalash, genotsidga to'g'ridan-to'g'ri va oshkora undash, genotsidga urinish hamda genotsidga sheriklik.

Genotsid taqiqi nafaqat shartnoma huquqi, balki xalqaro umumiy huquq doirasida ham o'rnatilgan. Xalqaro sud 1951 yilda "Genotsid konvensiyasidagi shartlarga e'tirozlar" bo'yicha maslahat xulosasida mazkur Konvensiyaning qoidalari umumbashariy xarakter kasb etishini va

¹ Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide, UN General Assembly Resolution 260 (III) A, 9 December 1948.

"madaniyatli xalqlar tomonidan tan olingan" huquqiy prinsiplarga asoslanishini ta'kidlagan. Bundan tashqari, genotsid taqiqi jus cogens xalqaro huquqning majburiy normasi maqomiga ega.² Bu esa hech bir davlat ikki tomonlama yoki ko'p tomonlama shartnomalar orqali mazkur taqiqdan chetga chiqa olmasligini bildiradi. Xalqaro sud 2006 yilgi Kongo Ruanda ishida va Xalqaro jinoyat tribunali amaliyotida bu pozitsiya bir necha bor tasdiqlangan.

Genotsidning huquqiy tavsifi ikki asosiy elementdan iborat: actus reus ya'ni moddiy element va mens rea - psixologik element. Xalqaro amaliyotda aynan psixologik elementning isbotlanishi tergov va sud jarayonlarida eng katta qiyinchilik tug'diradi.

Moddiy element yuqorida sanab o'tilgan beshta xatti-harakatni o'z ichiga oladi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ushbu harakatlar ro'yxati cheklov xarakteriga ega sud bu ro'yxatni kengaytira olmaydi. Masalan, madaniy genotsid ya'ni xalqning madaniyatini, tilini yo'q qilishga qaratilgan harakatlar 1948 yilgi Konvensiya doirasida genotsid sifatida tan olinmaydi, garchi bu masala ilmiy doiralarda hamon munozarali bo'lsa-da. Guruh a'zolarini o'ldirish tushunchasi faqat bevosita qotillikni emas, balki odamlarni o'limga olib boruvchi sharoitlarga qasddan duchor qilishni ham qamrab oladi. Ruanda bo'yicha Xalqaro jinoyat tribunali Akayesu ishida birinchi marta genotsidda jinsiy zo'ravonlik ham moddiy element sifatida tan olindi. Jiddiy zarar konsepsiyasi esa jismoniy shikastlanishdan tashqari og'ir ruhiy travmalarni, kamsitish va tahqirlashni ham o'z ichiga oladi.³ Yaqinda Rohinja musulmonlari masalasida BMT Faktlarni aniqlash missiyasi aynan shu mezon asosida genotsid belgilarini aniqlagan.

Psixologik element bu genotsidning boshqa xalqaro jinoyatlardan urush jinoyatlaridan va insoniyatga qarshi jinoyatlardan tubdan farqi uning maxsus niyati bilan belgilanadi. Bu niyat xalqaro huquqda dolus specialis "maxsus qasd" atamasi bilan yuritiladi. Psixologik element muayyan qo'rifaolagan guruhni to'liq yoki qisman yo'q qilish niyati bo'lib, bu nafaqat harakatlar natijasini ko'zlash, balki aynan ma'lum guruhga mansubligi uchun ularni yo'q qilishni maqsad qilish demakdir. Ushbu niyatni isbotlash amaliyotda juda murakkab. Sababki, jinoyatchilar o'z maqsadlarini ochiqcha e'lon qilmaydi. Shu boisdan sudlar quyidagi bilvosita dalillarga tayanadi: 1948 yilgi Konvensiya to'rtta guruhni himoya qiladi: milliy, etnik, irqiy va diniy guruhlar. Siyosiy guruhlar ushbu ro'yxatga kiritilmagan bu Lemkin ta'rifidan muhim chetlanish bo'lib, uning sabablaridan biri SSSR bosimi ostida muzokaralar davomida siyosiy guruhlarini ro'yxatdan chiqarib tashlash to'g'risida qabul qilingan qaror deb ko'rsatiladi. Guruhlarni aniqlashda xalqaro sudlar ikki yondashuvdan foydalanadi:

1. Ob'ektiv yondashuv: guruh umumiy ob'ektiv belgilar (til, kelib chiqish, din) asosida aniqlanadi
2. Sub'ektiv yondashuv: guruh jinoyatchi tomonidan qanday belgilanganligi muhim.

1948 yilgi Konvensiya faqat shaxslarni emas, balki davlatlarni ham genotsidni oldini olish va jazolash majburiyatini bajarishga majbur etadi. Bu masalada Xalqaro sud alohida yurisdiksiyaga ega. Xalqaro sud tarixida birinchi marta genotsid uchun davlatning javobgarligini to'g'ridan-to'g'ri ko'rib chiqqan holat bo'ldi. Sud Srebrenitsa genotsidinitan oldi, lekin Serbiyani genotsidni amalga oshirganlikda emas, balki uni oldini olmaganlikda va jinoyatchilarni sudga topshirmaganlikda aybladi. Bu qaror bir qancha muhim prinsiplarni shakllantirdi: Davlat genotsid xavfi haqida yetarli ma'lumotga ega bo'lgan holda harakatsiz qolsa, "oldini olish" majburiyatini buzadi, davlat organlari genotsidga bevosita ishtirok etmagan taqdirda ham, ularga bog'liq kuchlarning jinoyatlarini

² ICTR, The Prosecutor v. Jean-Paul Akayesu, Case No. ICTR-96-4-T, Judgment, 2 September 1998.

³ International Court of Justice. Case concerning Application of the Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide

nazorat qilishi va oldini olishi lozim, davlatning javobgarligi ex post facto — ya'ni jinoyat sodir etilgandan keyingina emas, xavf mavjud bo'lgan paytdan boshlab yuzaga keladi.

2002 yilda tashkil etilgan Xalqaro Jinoyat Sudi genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, urush jinoyatlari va tajovuz jinoyati uchun yurisdiksiyaga ega. Biroq XJSning faoliyatida bir qator tizimli muammolar mavjud: Birinchi, XJS faqat unga a'zo davlatlar yoki Xavfsizlik Kengashi yo'naltirgan ishlarni ko'rib chiqishi mumkin. Bu esa kuchli davlatlar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar ustidan nazoratni amalda cheklaydi. Ikkinchi, yirik kuchlar AQSh, Rossiya va Xitoy XJSga a'zo emas. Bu holat yurisdiksiyaning universalligi tamoyilini jiddiy darajada zaiflashtiradi. Uchinchi, Al-Bashir ishlari ko'rsatganidek, davlat rahbarlarining immunitetlari masalasi hal etilmagan. Suddan qochib yurayotgan shaxslarni qamoqqa olish mexanizmi hali ham samarasiz.

Milliy sudlarda javobgarlik. 1948 yilgi Konvensiyaning IX moddasi davlatlarga genotsidni o'z milliy qonunchiligida jinoyat sifatida belgilashni majbur etadi. Ko'pgina davlatlar bu talabni bajargan. Universal yurisdiksiya printsipi genotsid uchun alohida ahamiyatga ega: genotsid sodir etgan shaxslarni har qanday davlat, jinoyat qayerda amalga oshirilganidan qat'i nazar, sudga tortishi mumkin. Bu prinsip Ispaniyaning Pinochen ishida Belgiya va Fransiyaning Ruanda jinoyatlarini ko'rib chiqishida qo'llanilgan. Biroq amalda milliy sudlar siyosiy bosim, dalillarni yig'ishdagi qiyinchiliklar va diplomatik munosabatlar tufayli bunday ishlardan ko'pincha voz kechadi.

XULOSA. Genotsid jinoyatining xalqaro huquqdagi maqomi 1948 yilgi Konvensiyadan beri sezilarli darajada mustahkamlangan. Xalqaro tribunallar va sudlar amaliyoti ushbu jinoyatning tarkibiy elementlarini oydinlashtirdi, davlat va shaxsiy javobgarlik prinsiplari belgilandi. Biroq ko'rib chiqilgan muammolar ko'rsatadiki, huquqiy mexanizmlar va siyosiy iroda o'rtasidagi tafovut hamon katta. Xalqaro jinoyat huquqida quyidagi yo'nalishlarda islohotlar zarurligi yaqqol ko'rinmoqda: XJS samaradorligini oshirish: Yurisdiksiyani kengaytirish va ishlarni amalga oshirish mexanizmini mustahkamlash, "Oldini olish" majburiyatini aniqlashtirish, belgilangan xavf ko'rsatkichlari va majburiy munosabat choralari huquqiy jihatdan mustahkamlash, madaniy genotsid konsepsiyasini xalqaro huquqqa kiritish masalasini qayta ko'rib chiqish, universal yurisdiksiyani amaliy jihatdan kuchaytirish va milliy sudlarni xalqaro bilan muvofiqlashtirishni ta'minlash. Xulosa qilib aytganda, genotsid insoniyatning huquqiy vijdoniga eng kuchli zarba beradigan jinoyat sifatida qolmoqda. Uning oldini olish va javobgarlikni ta'minlash uchun huquqiy normalar zarur, lekin yetarli emas bu, avvalo, xalqaro hamjamiyatning birlashgan siyosiy irodasi masalasidir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide, UN General Assembly Resolution 260 (III) A, 9 December 1948.
2. Lemkin R. Axis Rule in Occupied Europe: Laws of Occupation, Analysis of Government, Proposals for Redress. — Washington: Carnegie Endowment for International Peace, 1944.
3. International Court of Justice. Case concerning Application of the Convention on the Prevention and Punishment of the Crime of Genocide (Bosnia and Herzegovina v. Serbia and Montenegro), Judgment, 26 February 2007.
4. ICTR, The Prosecutor v. Jean-Paul Akayesu, Case No. ICTR-96-4-T, Judgment, 2 September 1998.
5. ICTY, The Prosecutor v. Radislav Krstić, Case No. IT-98-33-A, Appeals Chamber Judgment, 19 April 2004.

6. Schabas W.A. Genocide in International Law: The Crime of Crimes. 2nd ed. — Cambridge: Cambridge University Press, 2009.
7. Cassese A. International Criminal Law. 3rd ed. — Oxford: Oxford University Press, 2013.